

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Pedagogika va psixologiya fanlari” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
<p data-bbox="208 400 577 746">Yosh sportchilarni saralashda genetik, psixofiziologik va funksional ko‘rsatkichlarga asoslangan kompleks seleksiya tizimini yaratish</p> 	<p data-bbox="705 357 1055 387">Tadqiqot shakli: Amaliy.</p> <p data-bbox="705 395 1066 426">Ilmiy tadqiqot natijalari:</p> <ol data-bbox="633 434 2058 1027" style="list-style-type: none">1. Yosh sportchilarni erta aniqlash va istiqbolini baholashga xizmat qiluvchi milliy kompleks seleksiya tizimi yaratiladi.2. Sportchilarning genetik xususiyatlari, psixofiziologik holati, funksional imkoniyatlari, motor qobiliyatlari, reaksiya tezligi, stressga chidamliligi asosida individual sportga yo‘naltirish algoritmi ishlab chiqiladi.3. Turli sport turlari uchun “sportchi modeli” (athlete model profile) shakllantiriladi.4. Noto‘g‘ri sport turiga yo‘naltirish holatlari kamayadi va iqtidorli yoshlarni yo‘qotish xavfi pasayadi.5. Yosh sportchilarning yuqori sport natijalariga erishish ehtimolini erta prognoz qilish imkoniyati yaratiladi.6. O‘zbekiston sharoitiga mos sport seleksiyasi bo‘yicha ilmiy ma‘lumotlar bazasi shakllantiriladi.7. Olimpiya va paralimpiya zaxirasi sportchilarini tayyorlash jarayonining samaradorligi oshadi.8. Paralimpiya sporti uchun adaptiv seleksiya mezonlari ishlab chiqiladi.9. Sport maktablari va tayyorgarlik markazlari uchun raqamli seleksiya platformasi yaratiladi.10. Sun‘iy intellekt elementlari asosida sportchi salohiyatini baholash va prognoz qilish tizimi ishlab chiqiladi. <p data-bbox="633 1035 2058 1142">Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Olingan natijalar Sport vazirligi tizimidagi tashkilotlar va muassasalarda sinovdan o‘tkaziladi, ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida Sport vazirligining xulosasi olinadi.</p> <p data-bbox="633 1150 2058 1294">Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma‘lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi</p> <p data-bbox="633 1302 2058 1366">Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Sport vazirligining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.</p>